

Mart oyining "Eng yaxshi xodimlari" taqdirlandi

// 18.04.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mart-oyining-eng-yaxshi-xodimlari-taqdirlandi>



Bugun "Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ QKda "Oyning eng yaxshi xodimlari" nominatsiyasining navbatdagi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Eng munosiblar rag'batlantirilgan tadbirda korxona rahbariyati, bo'lim boshliqlari va ishchi-xodimlar ishtirok etishdi.

Tadbirda "Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ QK bosh direktorning investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari D.Axmedjanov, umumiy masalalar bo'yicha mutaxassis V.Reimov, kasaba uyushmasi raisi B.Alliyarovlar oy davomida fidokorona mehnati bilan hamkasblariga namuna bo'lgan xodimlarni tabriklab, ularga mukofot pullari uchun sertifikatlar va sovg'alarni topshirdi.





“Qo’ng’irot soda zavodi” MCHJ QK Matbuot xizmati